Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Unda boshlang'ich ta'lim jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati, ayniqsa savod o'rgatish davrining o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Savod o'rgatish jarayonida tovush-harf tizimini o'zlashtirish, grammatik o'yinlar va yozuv mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, so'z boyligini kengaytirish hamda nutqiy izchillikni shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada matn bilan ishlashning monologik nutqni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilib, matn tahlil qilish, qayta hikoya qilish, mavzu asosida ijodiy matn tuzish hamda matn ustida mustaqil ishlash o'quvchilarning nutqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. O'quvchilarning matn yaratish jarayonida fikrni izchil bayon qilish, voqealar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni saqlash hamda nutq madaniyatiga amal qilish ko'nikmalari shakllanishi ilmiy tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, audiovizual vositalar, jumladan o'quv filmlari, videomateriallar, multfilmlar va boshqa zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nutqiy rivojlanishga ta'siri ham yoritilgan. Audiovizual vositalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytirishi, nutqiy faolligini oshirishi, ijodiy fikrlashini rivojlantirishi hamda og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalarida savod o'rgatish, matn bilan ishlash va audiovizual vositalardan kompleks foydalanish boshlang'ich sinflar o'quvchilarida monologik nutqni samarali shakllantirishning muhim omili ekanligi ko'rsatib berilgan. Mazkur maqola boshlang'ich ta'lim tizimida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: monologik nutq, nutqiy kompetensiya, savod o'rgatish jarayoni, boshlang'ich ta'lim, matn bilan ishlash, ijodiy matn yaratish, audiovizual vositalar, o'quv filmlari, multfilmlar, didaktik o'yinlar, nutq madaniyati, og'zaki nutq, yozma nutq, mustaqil fikrlash, nutqiy faoliyat, ijodiy tafakkur, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article discusses the theoretical and practical foundations of developing monologic speech in primary school students. It analyzes the importance of developing communicative competence in primary education, with particular emphasis on the role of the literacy instruction period in shaping students' oral and written speech. The study reveals the opportunities for fostering independent thinking, expanding vocabulary, and developing coherent speech through mastering the sound-letter system, grammatical games, and writing activities. The pedagogical potential of text-based activities for developing monologic speech is also examined. It is substantiated that text analysis, retelling, creative text production, and independent work with texts are important factors in enhancing students' speech thinking. The article scientifically analyzes the formation of skills related to coherent expression of ideas, maintaining logical connections between events, and observing speech culture during text creation. In addition, the influence of audiovisual tools, including educational films, video materials, cartoons, and other modern educational technologies, on speech development is explored. It is demonstrated that activities organized through audiovisual tools contribute to expanding students' imagination, increasing speech activity, developing creative thinking, and improving oral and written communication skills. The findings indicate that the integrated use of literacy instruction, text-based activities, and audiovisual tools is an important factor in the effective development of monologic speech among primary school students. The article has both theoretical and practical significance for developing methodological recommendations aimed at enhancing communicative competence in primary education.

Key words: monologic speech, communicative competence, literacy instruction, primary education, text-based learning, creative writing, audiovisual tools, educational films, cartoons, didactic games, speech culture, oral speech, written speech, independent thinking, speech activity, creative thinking, educational technologies.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические и практические основы формирования монологической речи у учащихся начальных классов. Анализируется значение развития речевой компетенции в процессе начального образования, а также научно обосновывается роль периода обучения грамоте в формировании устной и письменной речи школьников. Показаны возможности развития самостоятельного мышления, расширения словарного запаса и формирования связной речи посредством освоения звуко-буквенной системы, грамматических игр и письменных упражнений. Освещаются педагогические возможности работы с текстом в развитии монологической речи, обосновывается важность анализа текста, пересказа, создания творческих текстов и самостоятельной работы с текстовым материалом для развития речевого мышления учащихся. Научно проанализированы навыки последовательного изложения мыслей, сохранения логической связи между событиями и соблюдения культуры речи в процессе создания текста. Также рассматривается влияние аудиовизуальных средств, включая учебные фильмы, видеоматериалы, мультфильмы и другие современные образовательные технологии, на речевое развитие учащихся. Обосновано, что занятия, организованные с использованием аудиовизуальных средств, способствуют расширению воображения учащихся, повышению их речевой активности, развитию творческого мышления и совершенствованию устной и письменной речи. Результаты исследования показывают, что комплексное использование обучения грамоте, работы с текстом и аудиовизуальных средств является важным фактором эффективного формирования монологической речи у учащихся начальных классов. Статья имеет теоретическое и практическое значение для разработки методических рекомендаций по развитию речевой компетенции в системе начального образования.

Ключевые слова: монологическая речь, речевая компетенция, обучение грамоте, начальное образование, работа с текстом, создание творческого текста, аудиовизуальные средства, учебные фильмы, мультфильмы, дидактические игры, культура речи, устная речь, письменная речь, самостоятельное мышление, речевая деятельность, творческое мышление, образовательные технологии.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy madaniyati va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish kabi muhim vazifalar qo'yilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi, tafakkurining shakllanishi hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, fikrni ravon va izchil bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, voqealarni izchil bayon qilish, o'z qarashlarini mantiqiy asoslash hamda nutqiy madaniyat me'yorlariga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Monologik nutqni shakllantirish jarayoni savod o'rgatish mashg'ulotlari, matn bilan ishlash faoliyati hamda zamonaviy audiovizual vositalardan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Savod o'rgatish jarayonida tovush-harf tizimini o'zlashtirish, grammatik o'yinlar, yozuv mashg'ulotlari va nutqiy mashqlar o'quvchilarning nutqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va tilshunoslik fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutqiy faoliyatning rivojlanishi bolalarning tafakkuri, kommunikativ kompetensiyasi hamda shaxsiy kamoloti bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli mazkur muammo ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Nutq faoliyati nazariyasining ilmiy asoslari L.S.Vygotskiy, A.A.Leontyev va S.L.Rubinshteynlarning tadqiqotlarida yoritilgan. L.S.Vygotskiy nutq va tafakkurning o'zaro bog'liqligini asoslab, bolaning nutqiy rivojlanishi uning aqliy rivojlanishining muhim omili ekanligini ta'kidlagan. A.A.Leontyev esa nutqiy faoliyatni kommunikativ jarayon sifatida talqin qilib, monologik nutqni shakllantirishda faol muloqot va amaliy faoliyatning ahamiyatini ko'rsatgan.

O'zbek olimlaridan K.Qosimova, S.Matchonov, D.Babayeva va S.Qodirovalarning ilmiy ishlari boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan. K.Qosimova va S.Matchonov ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarini keng yoritgan. D.Babayeva nutq o'stirish nazariyasi va metodikasiga oid tadqiqotlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslarini ishlab chiqqan. S.Qodirova esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlar va matn yaratish faoliyatining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslagan.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari N.G.Alavutdinovaning tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Olimaning fikricha, o'quvchilarning monologik nutqini rivojlantirishda savod o'rgatish jarayoni, matn ustida ishlash va kommunikativ mashqlardan kompleks foydalanish muhim ahamiyatga ega.



Xorijiy tadqiqotchilar J.Bruner, D.Hymes va M.Hallidaylarning ilmiy qarashlarida ham til va nutqni o'qitishning kommunikativ jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. D.Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasi o'quvchilarning fikrni mantiqiy va vaziyatga mos tarzda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. M.Halliday esa tilni ijtimoiy muloqot vositasi sifatida talqin qilib, nutqiy faoliyatni real kommunikativ vaziyatlar asosida rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda audiovizual vositalarning ta'lim jarayonidagi o'rnini bo'yicha ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchilar multimedia texnologiyalari, videomateriallar va interaktiv vositalardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishi, tasavvurini boyitishi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishini qayd etadilar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, monologik nutqni rivojlantirishning nazariy va metodik jihatlarini keng o'rganilgan bo'lsa-da, savod o'rgatish, matn bilan ishlash va audiovizual vositalarning o'zaro integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish masalasi yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan ushbu vositalarning integratsiyalashgan holda qo'llanishi orqali monologik nutqni rivojlantirish imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish muammosini o'rganishga qaratilgan tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, savod o'rgatish jarayoni, matn bilan ishlash hamda audiovizual vositalarning nutq rivojiga ta'siri ilmiy-metodik adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, o'quvchilarning monologik nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish jarayoni savod o'rgatish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Savod o'rgatish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishning dastlabki va eng muhim bosqichi bo'lib, unda o'quvchilar tovush va harflarni o'zlashtirish, ularni to'g'ri talaffuz qilish, so'z va gap tuzish malakalarini egallash orqali o'z fikrini mustaqil bayon qilishga o'rganadi. Savod o'rgatish mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqi shakllanadi, lug'at boyligi kengayadi, fikrni izchil ifodalash ko'nikmalari rivojlanadi. O'quvchilarning bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi ham bevosita ularning nutqiy ko'nikmalari qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayoniga alohida e'tibor qaratiladi va har bir tovush hamda harfni mukammal o'zlashtirish uchun turli mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun grammatik o'yinlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rag'batlantiradi, ularni mustaqil ishlashga undaydi hamda har bir tovush va harfning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Grammatik o'yinlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli tashkil etadi, ularni toliqishdan saqlaydi hamda o'quvchilarda o'z faoliyatidan zavqlanish hissini uyg'otadi. Ayniqsa, "So'z tuzish", "Gap tuzish", "Davomini topish" kabi o'yinlar orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga, so'z boyligini kengaytirishga va nutqiy mantiqni shakllantirishga erishadilar.

Savod o'rgatish jarayonida fonetik bilimlarni egallash ham monologik nutq rivojida muhim o'rin tutadi. O'quvchilar unli va undosh tovushlarni farqlash, ularning talaffuz xususiyatlarini aniqlash, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni taqqoslash orqali nutq tovushlarini to'g'ri qo'llashga o'rganadilar. Tovushlarning xususiyatlarini anglab yetish o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga, yozuvda xatolarga yo'l qo'ymasligiga hamda fikrni aniq ifodalashiga yordam beradi. Shuningdek, bo'g'in, urg'u, tovush almashinuvi kabi fonetik hodisalarni o'zlashtirish o'quvchilarning nutqiy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayonida yozuv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish ham monologik nutq shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Husnixat malakasini rivojlantirish, sidirg'ali o'qish ko'nikmasini shakllantirish, yozma nutqni izchil bayon qilish mashqlari o'quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiradi. Yozuv mashg'ulotlarini o'yin shaklida tashkil etish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda turli metodlardan foydalanishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirishda matn bilan ishlash jarayoni ham muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, nutqiy izchillikni shakllantirish hamda o'z fikrini mustaqil ifodalashga o'rgatishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar matnni o'qish, tahlil qilish, qayta hikoya qilish va matn asosida yangi matn yaratish orqali nutqiy faoliyatning turli shakllarini egallaydilar. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar mavzuni anglash, asosiy g'oyani ajratish, voqealar ketma-ketligini saqlash, mantiqiy bog'lanishlarni to'g'ri ifodalash kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Bu jarayon o'quvchilarning monologik nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki matn ustida ishlash o'quvchini o'z fikrini izchil bayon qilishga o'rgatadi.

Matn asosida ijodiy ishlash o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi, ularni voqealarni tasvirlash, o'z munosabatini bildirish hamda nutqni mantiqiy tuzishga undaydi. Berilgan mavzu asosida matn tuzishga o'rgatish o'quvchilarning ijodiy erkinligini ma'lum darajada chegaralasa-da, ularni fikrni aniq yo'nalishda ifodalashga o'rgatadi. Mavzu asosida matn yaratish o'quvchini fikrini muayyan yo'nalishda jamlashga yordam beradi, chalg'ishning oldini oladi va voqealar o'rtasidagi bog'lanishni mantiqiy asosda ifodalashga o'rgatadi. Mavzuning to'g'ri tanlanishi o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning mavjud bilimlarini safarbar qiladi va mustaqil fikrlashga undaydi.

O'quvchilar matn yaratish jarayonida o'z tasavvurlarini saralashga, muhim jihatlarni ajratishga va fikrni izchil ifodalashga o'rganadilar. Matn yaratish jarayoni o'quvchining ijodiy faoliyati mahsuli hisoblanadi va bu jarayonda o'quvchining dunyoqarashi, tafakkuri hamda nutqiy ko'nikmalari o'zaro uyg'unlashadi. Matn grammatik, mazmuniy va tasviriy jihatdan yaxlit bo'lganda uning ta'sir kuchi ortadi, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga matn yaratishda lisoniy to'g'rilik, mantiqiy izchillik va ifodaviylik talablarini tushuntirishi lozim.

Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar matn mazmunini qayta bayon qilish, matn asosida savollarga javob berish, voqealarni tasvirlash orqali og'zaki nutqini rivojlantiradilar. Matnni tahlil qilish jarayoni o'quvchilarning nutqiy tafakkurini rivojlantiradi, ularga fikrni tizimli ifodalash imkonini beradi. O'quvchilar matn ustida ishlash jarayonida so'z boyligini kengaytiradilar, yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradilar, bu esa ularning nutqini boyitadi. Matn yaratish mashg'ulotlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularda ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Matn ustida ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi, ularni mavzuga qiziqtirishi va ijodiy faoliyatga jalb qilishi zarur. O'quvchilar matn yaratish jarayonida voqealarni tasvirlash, ularga baho berish, o'z munosabatini bildirish orqali monologik nutq malakalarini egallaydilar. Matn bilan ishlash o'quvchilarning nutqiy madaniyatini rivojlantiradi, ularni fikrni aniq, ravon va izchil bayon qilishga o'rgatadi. Ushbu jarayon o'quvchilarda tafakkur va nutqning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Matn bilan ishlash boshlang'ich sinflarda izchil va uzluksiz tashkil etilganda o'quvchilarning monologik nutqi samarali shakllanadi, ular o'z fikrini mustaqil bayon qilish, voqealarni mantiqiy izchillikda ifodalash va nutqiy madaniyatga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Monologik nutqni shakllantirishda audiovizual vositalardan foydalanish samarali pedagogik usullardan biridir. Audiovizual vositalar, jumladan, o'quv filmlari, videofilmlar, multfilmlar va boshqa tasviriy materiallar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, ularning tasavvur doirasini kengaytirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Harakatdagi tasvirlarni kuzatish o'quvchilarda voqealarni izchil bayon qilish, tasvirlangan hodisalarga munosabat bildirish va o'z fikrini mustaqil ifodalash ehtiyojini kuchaytiradi. Audiovizual materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ularni ijodiy fikrlashga undaydi.

O'quv filmlaridan foydalanish o'quvchilarga mustaqil matn yaratish imkoniyatini beradi. Filmlarda diktor matni yoki subtitrlarning bo'lmasligi o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashiga keng yo'l ochadi. O'quvchilar film mazmunini sharhlash jarayonida voqealarni so'z orqali ifodalashga, tasvirlangan holatlarni tahlil qilishga hamda ularni izchil tarzda bayon qilishga o'rganadilar. Film asosida matn yaratish mashg'ulotlari o'quvchilarning ham og'zaki, ham yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchi o'zi yaratgan matnni film mazmuni bilan taqqoslash orqali nutqining qay darajada to'g'ri va mos ekanligini anglaydi hamda o'z nutqini tahrir qilish ko'nikmasini egallaydi.

Audiovizual vositalardan foydalanish jarayonida o'quvchilar o'zlarini sharhlovchi yoki ijodkor sifatida his qiladilar. Bu esa ularda mas'uliyat hissini kuchaytiradi va nutqiy faoliyatga qiziqishni oshiradi. Film namoyishi davomida o'quvchi tasvirlangan voqealarni so'z bilan ifodalashga harakat qiladi, bu esa uning lug'at boyligini kengaytiradi, ifodali nutqni shakllantiradi hamda talaffuz me'yorlariga amal qilishga o'rgatadi. Harakatdagi tasvir asosida nutq yaratish o'quvchilardan leksik bilimlarni yaxshi o'zlashtirishni talab qiladi. Ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, iboralar va boshqa til birliklarini to'g'ri qo'llash o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu vositalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni jamoa bilan ishlashga ham o'rgatadi. O'quvchilar guruhlarda ishlash jarayonida bir-birining fikrini eshitish, o'z qarashlarini mantiqiy dalillar bilan asoslash hamda umumiy xulosaga kelish ko'nikmalarini egallaydilar. Bunday mashg'ulotlar, aytib o'tilganidek, o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, loqayd o'quvchilarni ham faol ishtirok etishga undaydi. Audiovizual materiallar asosida ijodiy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning nutqiy tafakkurini rivojlantiradi va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Videofilmlar asosida matn yaratish jarayoni o'quvchilardan oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Film namoyishidan oldin o'quvchilarga kuzatish jarayonida e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlarni tushuntiriladi. Filmni tomosha qilish jarayonida o'quvchilar tasvirlangan voqealar, qahramonlar, muhit va hodisalarni tahlil qiladilar.



Namoyishdan so'ng o'quvchilarga savollar berish, film mazmunini muhokama qilish hamda matn tuzish vazifalarini bajarish orqali ularning nutqiy faoliyati rivojlantiriladi. Bu jarayon o'quvchilarda voqealarni izchil bayon qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda fikrni mantiqiy tarzda ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuni aytib o'tish kerakki, audiovizual vositalar yordamida tashkil etilgan ijodiy mashg'ulotlar o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar mustaqil fikr mahsulini yaratishga, o'z qarashlarini erkin ifodalashga va nutqiy madaniyatga rioya qilishga o'rganadilar. Bular o'quvchilarning tasavvurini boyitadi, ularni atrof-muhit hodisalariga befarq bo'lmaslikka, voqealarni kuzatish va tahlil qilishga undaydi. Shu bilan birga, bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni ijodiy faoliyatga jalb etadi hamda monologik nutqni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Savod o'rgatish mashg'ulotlari, matn bilan ishlash va audiovizual vositalardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, voqealarni izchil bayon qilish va nutqiy madaniyatni rivojlantirish mumkin. Tovush va harflarni o'zlashtirish, grammatik o'yinlar, yozuv mashg'ulotlari lug'at boyligini kengaytiradi va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Matn bilan ishlash o'quvchilarga anglash, tahlil qilish, qayta hikoya qilish va ijodiy matn yaratishni o'rgatadi. Audiovizual vositalar tasavvur doirasini kengaytirib, nutqiy faollik va ijodiy tafakkurni oshiradi. Shu bilan kompleks metodlar orqali monologik nutqni samarali shakllantirish o'quvchilarning ravon, mantiqiy va ifodali nutq sohibi bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alavutdinova N. G. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi: Monografiya. - Toshkent: "Bookmany Print", 2023.
2. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent, 2018.
3. Qodirova S. A. Ona tili o'qitish metodikasi (Nutq o'stirish metodikasi). - Buxoro: KAMOLOT, 2022.
4. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: NOSIR, 2009.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.